

Qudratov Shuxrat Yodgorovich
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası
katta o'qituvchisi, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA YANGICHA QARASHLARNING AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat o'z asarlarida Buxoro amirligi iqtisodiyotiga oid muammolarni keskin tanqid qilib ularning islohotga muhtoj ekanligini to'g'risidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shu bilan birga muammolarni bartaraf etishga oid yechim va tavsiyalari taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, do'kon, savdo, tijorat, sarmoya, xorijiy sarmoyador, hunarmand, tadbirkorlik, tanga, fabrikant, alacha, mashina, milliy iqtisodiyot.

ОТРАЖЕНИЕ НОВЫХ ПОДХОДОВ К РАЗВИТИЮ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУРАУФА ФИТРАТА

Аннотация. В данной статье рассматривается, как крупный представитель бухарского джадидского движения Абдурауф Фитрат в своих произведениях подвергает резкой критике проблемы экономики Бухарского эмирата и обосновывает их необходимость в реформировании. Наряду с этим представлены предложенные им решения и рекомендации, направленные на устранение выявленных проблем.

Ключевые слова: джадидизм, лавка, торговля, коммерция, капитал, иностранный инвестор, ремесленник, предпринимательство, тanga (монета), фабрикант, алача, машина, национальная экономика.

REFLECTION OF NEW APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE WORKS OF ABDURAUF FITRAT

Annotation. This article examines how Abdurauf Fitrat, a prominent representative of the Bukhara Jadid movement, sharply criticizes economic problems of the Bukhara Emirate in his works and substantiates the need for their reform. It also presents the solutions and recommendations he proposed to address the identified problems.

Keywords: Jadidism, shop, trade, commerce, capital, foreign investor, artisan, entrepreneurship, tanga (coin), manufacturer, alacha, machine, national economy.

Kirish. Buxoro amirligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tadbirkorlik va tijorat ishlarini rivojlantirish haqida yangicha qarashlar vujudga kela boshladi. Jamiyatning barcha jabhalarida o'zgarishlar bo'lishini istagan taraqqiyparvar ulamolar va jadidlar iqtisodiy hayotdagi muammolarni tanqid qilib, ularga yechim izlay boshladilar hamda sohani rivojlantirish bo'yicha o'zlarining g'oyaviy dasturlarini ishlab chiqdilar. Ularning iqtisodiy g'oyalari markazida iqtisod ilmini o'rganish zarurligi, dunyo davlatlarida bo'lgani kabi ilg'or texnika va texnologiyalarni amirlik hududiga jalb etish, savdo-tijorat ishlarini ilmiy asosda qurish, tadbirkorlik, agrar iqtisodiyot samaradorligini oshirish kabi masalalar muhim o'rin tutgan.

Adabiyotlar tahlili. Jadid namoyandasi Abdurauf Fitrat o'z asarlarida Buxoro amirligidagi iqtisodiy muammolarga to'xtalib uni bartaraf etishga oid o'z tavsiyalarini taqdim etadi. Ayniqsa Fitratning Hind sayyohi bayonoti //Tanlangan asarlari.1-jild-Toshkent "Ma'naviyat" 2000 asarida mavzuga mos batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan

Natija va muhokoma. Buxoro jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat ham o'z asarlarida Buxoro amirligi iqtisodiyotiga oid muammolarni keskin tanqid qilib, ularning islohotga muhtoj ekanligini ta'kidlaydi. Buxorodagi savdo va tijorat do'konlari haqida: "Bu

- 18 shaharning do'konlari eskicha uslubda qurilg'on. Ayrim rastalarida g'arb uslubicha qurilg'on bir-ikki do'kon ham ko'zga tashlanadi. Bu o'lkaning tijorati madaniyatli, rivojlangan mamlakatlar tijorati kabi taraqqiy etmagan bo'lsa-da, ammo hanz umuman aholining qo'lid an chiqmagan. Agar isloh qilsalar, Buxoro aholisi juda katta davlat va boylik egasi bo'lishlari mumkin" 1], deb yozadi.

Fitrat Buxoro amirligini mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqishning ikki yo'lini taklif etadi va bu g'oyani amalga oshirish yo'lida sobitqadamlik bilan kurash olib boradi. Mustaqillikka erishishning birinchi yo'li millatni, xalqni o'qimishli, ma'rifatli qilish, uning barcha qatlamlariga ziyo tarqatish, tarixan doimo ozod va mustakil yashashga intilgan buyuk millat ekanligi ruhiyatini unga singdirish, dunyo xalqlari erishgan ma'rifat va madaniyatidan, ilmiy texnik taraqqiyotidan bahramand bo'lish, odamlarda vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'ullik hissini uyg'otish, mamlakatni xom-ashyo yetkazib beruvchi hudud bo'lib qolmaslikka chaqirish, uning uchun iqtisodiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish, deb bildi. Ikkinchi yo'l esa Buxoroning milliy iqtisodiyotini vujudga keltirish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish, jahon iqtisodiyoti bilan iqtisodiy tenglik va manfaatlilik tamoyili asosida hamkorlik va integratsiyaga kirishdir, deb ta'kidladi. Bu Fitratning milliy uyg'onish va iqtisodiy yuksalish konsepsiyasini amalda moddiylashuvining iqtisodiy, ma'rifiy, intellektual amallarini ham ko'rsatib berdi. Uning "Hind sayyohi bayonoti" asari ana shu iqtisodiy g'oyani ishlab chiqqan ilmiy asar bo'lib, unda amirlikning tabiiy xom-ashyo manbalarga juda boy ekanligi, ular hozircha yashirilib yotganligi, bu yer osti boyliklarini o'zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg'or mamlakatlaridan texnologiya keltirib zamonaviy asosda tubdan qayta qurish, xorijiy sarmoya, ilm-fan, texnika yutuqlarini milliy iqtisodiyotni yaratishga dadil jalb etishga oid qarashlar ilgari surilgan [2]. U yoshlarni tijorat va savdo ishlariga o'qitish lozimligiga da'vat kilib, vatandoshlariga: "Sizlar o'z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib, savdo ishiga o'qitingiz, chunki begonalar, ya'ni xorijiy sarmoyadorlar tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz" [3], deb yozadi.

Abdurauf Fitrat o'z vatanini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga va xalqni farovon hayot tarziga olib chiqishning asosiy yo'li Turkistonga Yevropa fani, madaniyati, texnika, texnologiyasi, sarmoya va ilg'or tajribasini keng miqyosda va tez sur'atlar bilan kiritishda, deb bildi. Bu yo'lda ikkilanish, g'ayridin ilmi va texnikasini kiritishdan cho'chimaslik, sarosimaga tushmaslik, oriyat qilmaslik kerak, deb ta'lim berdi. Chunki, -deydi olim, - Yevropa xalqlari ham bir vaqtlar g'oyat qoloq va qashshoq bo'lishgan bir davrda Sharq fani, madaniyati, tajriba va amaliyotini qo'llash orqali yuksak taraqqiyotga chiqib olganlar. Zero, bundan 1000 yillar ilgari Yevropa xalqlari iqtisodiy va ma'naviy qoloq bo'lgan davrlarda Sharq xalqlari insoniyat sivilizatsiyasining ancha yuqori darajasida bo'lganlar. Bu fikrning isboti sifatida yozuvchi Farangistonlik muallim Sharl Soniviyusning quyidagi fikrlarini keltiradi: "O'n birinchi asrda Ovrupa shaharlari kichik va oddiy, qishloqlari vayrona kulbalardan iborat bo'lg'an. Yo'lda o'ldirilishlaridan qo'rqub, hech kim o'z uyidan o'n farsahdan yiroqqa borolmas edi. Islom olami esa Bog'dod, Shom, Misr, Andalus singari butunlay obod va ko'rkam shaharlar, marmar bilan bezatilgan saroylar, mukammal korxonalar, madrasa va maktablar, ziynatli va ozoda bozorlarga ega bo'lg'an. Dalalarining har qadimidagi go'shalaru xirmon-xirmon hosilni ko'rganning ko'zi quvonar edi. Ispaniya bilan Turkiston o'rtasida savdo karvonlari bemalol borib kelardi. Ovrupalilar musulmonlar taraqqiysini xolis niyat bilan qabul qilib, kasb va ilm o'rganish niyatida islom shaharlarida tahsil ko'rganlar. Ovrupa musulmonlar bilan aloqa va munosabat o'rganish orqali taraqqiy qilg'on. Ovrupalilarning islom olamid an qabul qilg'on ishlari tubandagilar: Ziroat: ko'k bug'doy, tut daraxti, guruch, hurmo, lemun, po'rtahol, paxta, qahva va nayshakar. Sanoat: shoyi gazlamalar, zar to'qish, shisha, oyna va qog'oz. Ilm-fan: al-jabr va al-muqobala, handasa, chizmachilik, kimyo, hisob va hakoza. Islom ahli Yunon, Eron, Hind, Chinning ilmu fandagi ixtirolarini to'plab va o'zlaridan ko'pgina narsalar qo'shib, oxir-oqibat bularning barini ovrupalilarga topshurdilar" [4].

Abdurauf Fitrat xalqni Yevropa fani, texnikasi, sarmoyasi va tajribasini milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun uyalmasdan, tortinmasdan jalb etish kerak, deb da'vat qilganida huddi ana shu tamal toshni nazarda tutadi. Bunda hech qanday g'ayritabiiylik yo'qligini isbotlaydi. "Sanoat va hunarmandchilik poytaxt sanoatidan yaxshiroq. Xalqi obdasta yasash va gilam to'qishda juda

mohir, ayniqsa, alacha to'qishda tengi yo'q. Ammo taassufki, ushbu narsalarning hammasini eskicha usulda tayyorlaydilar, ya'ni korxonalarning hammasida qo'l mehnati ustun. Mashina bilan ishlovchi korxonalarga ega emaslar va uni yaratish xayollariga ham kelmaydi". Asar qahramoni hind sayyohi Qarshi shahrida bir hunarmand bilan suhbatda u o'zi to'qiyotgan alachalar g'oyat nafis, nozik va chiroyli ekanligini ta'riflaydi. Biroq, bu matolar qo'l mehnatiga asoslanganligi uchun juda qimmatga tushayotganligini, bunday sharoitda foyda olish, iqtisodiy rivojlanish amrimahol ekanligini qayd etadi. Shunday bo'lsa-da, mato to'quvchi ustalar nima uchundir mahsulotni arzonlashtiradigan va mashaqqatli mehnatni yengillashtiradigan mashinalarni qo'llashni hayollariga ham keltirmayotganiga afsuslik bildiradi. "... agar turkistonli hunarmandlar ovrupalilar singari qo'l mehnatiga asoslangan korxonalarini doimiy fabrikalarga aylantirmas ekanlar, bir necha yildan keyin ularning sharaflari san'atidan nom-nishon qolmaydi. Shuning uchun umid qilardimki, mening so'zlarimni inobatga olsangiz, chunki ish tanazzulga yuz tutganidan so'ng, pushaymon bo'lishning foydasi yo'q" [5]. Muallif uqtiradiki, bozor iqtisodiyotida raqobat juda kuchli unsurdir. Biroq, mashinalashgan, sanoat ishlab chiqarishi bilan qo'l mehnatiga asoslangan mayda ishlab chiqarish o'zaro raqobat qila olmaydi. Shuning uchun ish tanazzulga borib yetmasdan ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosiga ko'chirish lozim. "Engil sanoatda Kitobning alachasi va iroqido'zligi juda mashhurdir. Keyingisi alohida e'tiborga loyiq. Faqat shuni taassuf bilan aytish mumkinki, bu hunarmandchilik hali ham eskicha usulda davom etmoqda va shuning uchun ham bugungi kunda tanazzul yoqasida" [6].

Abdurauf Fitrat tijoratning o'ziga xos madaniyatlari borligi va ularga amal qilish kerakligi to'g'risida: "... Tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir. Dunyo xalqlaridan birontasining ishi tijoratsiz amalga oshmaydi. Ayniqsa bizning davrimizda tijorat juda e'tibor berishga arziydi" [7], deb ta'kidlaydi. Fitrat savdo va tijorat ishining o'ziga xos qoidalari mavjudligiga e'tibor qaratib, savdo va tijorat ishida millat, Vatan, yurt manfaatlarini hisobga olinishi, ana shu manfaatlardan kelib chiqib, o'zaro ittifoq bo'lib faoliyat ko'rsatish lozimligini; savdo va tijorat ahli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosida qurilishiga yordam ko'rsatishlari, sohibkorlarga amaliy madad berishlari kerakligini; savdo va tijorat ahli "savdo ilmini zo'r berib o'qishlari va bilishlari lozim"ligini, yevropaliklarning savdo va tijoratdan foyda olishlari zaminida madaniy savdo qilish ilmi bilishlaridan ekanligini uqtiradi [8].

Fitrat amirlikda tadbirkorlik, ishlab chiqarish sohalari qadimdan mavjud bo'lganligi va ularni yana ham rivojlantirish bo'yicha fikrlarini bayon etadi va hunarmandlarga sayyoh tilidan murojaat qiladi. Jumladan, Qarshida qilgan sayohati davomida bir to'quvchi hunarmand bilan suhbatlashib, unga Buxoro xalqi hunarmandlari hayotidan misollar keltiradi. Xalq ko'z o'ngida bo'lib turgan, ammo uni idrok eta olmaydigan fojialarni izohlab usta qalbiga yo'l ochadi. U Buxoro xalqining mustamlakachilik girdobiga tortilgani va qanday ahvolga tushib qolganligini izohlab beradi: "Sizga hayotiy bir misol. Siz, masalan, bir kiyimli ipli alachaga o'n besh tanga sarflab, yigirma tangaga sotasiz va besh tanga foyda ko'rasiz. Ammo fabrikantlar alacha to'qish ishiga qo'l ursalar xuddi siznikidek alachani o'n tanga bilan fabrikadan chiqarib, o'n besh tangaga sotadilar. U vaqt hech kim yigirma tanga berib, sizning alachangizni olmaydi. Keyin siz ham alachangizni o'n besh tangaga sotasiz. Ular sizning bu ishingizni ko'rgach, o'zlarining mollarini sakkiz tangaga sotishadi va ikki tanga zararni o'zlariga ravo ko'rishadi. Ana shunda siz va hamkasblaringiz ham noiloj o'zlarangizni mollaringizni sakkiz tangaga sotib juda katta zarar ko'rib, hovli va do'konlaringizni sotib, shu zararni qoplaysiz [9].

Sayyoh Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Samarqand va boshqa joylarni ko'rib, naqadar zavqlansa, unda yashayotgan aholi turmush tarzidan behad iztirob chekadi. Jannatday bir makonda yashayotganlarning g'aflatdan uyg'ona olmayotganligidan afsuslanib: "... Qarshi va Kitobning alacha to'quvchisi Farangistonda yashasa, boshdan oyoq zar-zevorlarga botar edilar. Bu bechoralarning esa yeyishga noni yo'q. Agar shu Shahrisabz yerlari Yapon elida bo'lganida edi, zar undirar edilar" [10], deb yozadi.

Xulosa. XX asr boshlarida Buxoro amirligida bozor munosabatlari va u bilan bog'liq tushunchalar mahalliy mulkdorlar, tadbirkor va ishbilarmonlar hamda ziyolilar qatlami ongiga singib bormokda edi. Bozor munosabatlarining eng oddiy, ommabop tushunchalari esa savdo va

- 20 tijorat bilan bogʻlik edi. Chunki azaldan davom etib kelayotgan bozor ishlarini kengaytirish, savdo va tijorat orqali daromad topish, yurtni obod va turmushni farovon qilish oddiy odamlar uchun har jihatdan qulay usul hisoblanar edi. Hunarmandchilik rivoji, savdo-sotiqning kengayishi ma'lum ma'noda, voqea aholisi madaniy hayotidagi ustunlikni ta'minlashga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти // Танланган асарлар. 1-жилд. - Тошкент: “Маънавият”, 2000. – Б. 110.
- 2.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 110-167.
- 3.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 167.
- 4.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 120.
- 5.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 140-143.
- 6.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 151
- 7.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 164.
- 8.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 140.
- 9.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 154.
- 10.Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. – Б. 155.